# O‘QUV DASTUR PASPORTI

O‘quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta’lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025-yil 14 - avgustdagi № 3 - sonli bayonnomasiga ko’ra №IXT-251 asosida ro’yxatga olinib tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2030 yil gacha

| | |
|---|---|
| **Ta’lim muassasasi nomi** | Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi |
| **Kafedra/bo‘lim** | Patologik anatomiya va sud tibbiyoti |
| **O‘quv dastur nomi** | Patologik anatomiya |
| **O‘qish turi** | Ixtisoslashtirish |
| **O‘quv dastur muallifi/ mualliflari** | B.A. Magrupov, Z.S. Zalyalova, X.A. Murotov |
| **Siklning umumiy soati** | 1296 kredit |

| Siklda dars beradigan o‘qituvchi va trenerlar | | | | |
|---|---|---|---|---|
|  |  |  |  |  |
| t.f.d. professor B.A. Magrupov | PhD, katta o’qituvchi T.A.Vervekina | t.f.n., katta o’qituvchi V.U.Ubaydullayeva | Assistent X.A. Murotov | Assistent Z.S. Zalyalova |

| | |
|---|---|
| **Maqsad** | Universal, kasbiy va kasbiy ixtisoslashgan tizimga ega, O‘zbekiston Respublikasining ixtisoslashgan va tuman klinikalari va ilmiy markazlarninng patologik anatomiya bo‘limlari sharoitida mustaqil faoliyatga tayyor, ushbu mutaxassislik bo‘yicha to‘liq nazariy bilimlarni, shuningdek dunyo ilm-fanining zamonaviy yutuqlari va ushbu sohadagi amaliyotga asoslangan patologik tadqiqotlarning zamonaviy darajasi va yuqori sifatini ta’minlash uchun o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan, malakaviy xususiyatlar talablariga muvofiq mahalliy tibbiyot yordamining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda malakali |

| | |
|---|---|
| | patologoanatom-vrachni tayyorlash. Shu jumladan, sud-tibbiy ekspertiza tizimida ishlab kelayotgan vrachlarni ko‘shimcha qayta tayyorlash, hamda patolgoanatom vrachlarni qayta tiklash ixtisosligi bo‘yicha “Patologik anatomiya” fanidan yuqori darajali bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassis patologanatom tayyorlashga qaratilgan dastur. |
| **Siklga taklif qilingan mutaxasisslar - kontingent** | Birlamchi ixtisoslik (BI) uchun – tibbiyot institutini “Davolash ishi”, “Pediatriya ishi”, “Tibbiy – pedagogika ishi”, “Tibbiy – profilaktika ishi” mutaxassisliklari bo‘yicha tugatgan shifokorlar, o‘qish davomiyligi 1296 kredit (9 oy) |
| **Sikl vazifalari** | - norma va patologiyani ajratishni o‘rgatish, yorug‘lik mikroskopiya darajasida xujayralar va to‘qimalarda patologik o‘zgarishlarni tahlil qilishni, ichki a’zolarda turli kasalliklardagi o‘zgarishlarni izohlashni o‘rgatish;<br>- patologik anatomiya ixtisosligi bo‘yicha doimiy, tizimli, izchil va boshqariladigan o‘quv jarayonini tashkil etish asosida asosiy, fundamental tibbiy bilimlarni shakillaantirish, bu tinglovchiga sikl dasturiga muvofiq chuqur va yangilangan bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishga imkon beradi;<br>- patologoanatom-vrachning kompetensiyalarini shakllantirish;<br>- Patologik anatomiya bo‘limning autopsiya materiallarini umumlashtirish va tashkil qilish bo‘yicha bilimlarni rivojlantirish, klinik va patologoanatomik tashhislarni taqqoslash orqali diagnostika va tibbiy ishlarning sifatini tashkil qilish<br>. |
| **Sikl tarkibi** | MODUL 1: O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirish strategiyasi - Sog‘liqni saqlash yangi tizimini rivojlantirish, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi meyoriy hujjatlar, preventiv tibbiyot tamoyilari.<br>MODUL 2: Umumiy patologik anatomiya<br>MODUL 3. Xususiy patologik anatomiya |

| | |
|---|---|
| **O‘qish bazalari** | Asosiy: Respublika Shoshilinch tibbiy yordam Markazi<br><br><br>Qo’shimcha bazalar: sayyor va qo’shimcha sikl o’tkaziladigan bazalar |
| **Simulyatsion asbob/uskunalar** |  <br> |